

TILNING LISONIY MA'NO UMUMLASHMASI

Kudratxodjayeva Nargis Akbarovna
filologiya fanlari nomzodi, dotsent, TDTU

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslik masalalaridan hisoblangan, olamning til tasviri, uning o'ziga xos xususiyatlari, til yordamida olamni konsepsiyalashtirish, tafakkur birligi va lisoniy ma'no umumlashmasi ko'rib chiqilgan.

Tayanch so'z va iboralar: tushuncha, lisoniy birlik, tafakkur, borliq, ong, obyekt, subyekt, kommunikativ bilish, leksik va grammatik nominatsiya, konsept, konseptullashtirish.

Аннотация: В данной статье рассматриваются такие вопросы современной лингвистики, языковое представление мира, ее особенности, концептуализация через язык, обобщение единство мысли и языкового значения.

Ключевые слова: понятие, языковое единство, мышление, бытие, разум, объект, субъект, коммуникативное знание, лексико-грамматическая номинация, концепт, концептуализация.

Annotation: This article deals with such issues of modern linguistics, linguistic representation of the world, its features, conceptualization through the language, unity of thought and generalization of linguistic meaning.

Key words: concept, linguistic unity, thinking, being, mind, object, subject, communicative knowledge, lexico-grammatical nomination, concept, conceptualization.

Ilm-fanda tilshunoslik masalalariga alohida e'tibor qaratilib, hozirda uni tushuncha va lisoniy birlik sifatida ko'rib chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Til voqeligini tildan xoli (tashqarida) aniq chegaralash mumkin emas. Til insondan begona mohiyat emas, balki insonning qobiliyati sifatida muloqat vositasi va olamning in'ikosi bolib izohlanadi. Til insonning ongi, tafakkuri, ma'naviy-amaliy faoliyati bilan uzviy bog'liq. Til yordamida bilimlar, ma'naviy – ma'rifiy qadriyatlar, uning me'yorlari o'zlashtiriladi va to'planadi. Inson ongida ikkilamchi ideal olamning hosil bo'lishi go'yoki obyektiv olamni inson miyasiga xos usul va shakllarda takrorlanadi. Til tafakkurning mavjudligi, uni ifodalash shakllarining ikkilamchi shakli bo'lib ishtirot etadi. "Til tafakkurni, tafakkur esa borliqni aks ettiradi", demak "olam haqidagi bilim – bu tafakkur faoliyatining ajralmas qismi, inson ongida bu tasvirning mavjud bo'lishi shakli esa tushunchalar

va ularning munosabatlari ko‘rinishidagi abstraktsiya (mavhumlik) hisoblanadi”[1, 23].

Borliq, birinchi navbatda, bir-biri bilan u yoki bu usul bilan bog‘langan moddiy unsurlar (obyektlar)ning ochiq ko‘pligidan iborat. Ushbu unsurlarning har biri ikki tomonlama mohiyat sifatida tavsiflanib, mavhum (kategorial) va aniq (funktsional) xususiyatlarga bo‘linadi. Bu xususiyatlar unsurlarning o‘z shaklida uzbek qo‘shilib ketgan va ularning boshqa unsurlar bilan munosabati hamda aloqasida namoyon bo‘ladi. Til o‘ziga xos ikkilamchi ishora tizimi sifatida atrof borliq (birlamchi ishora tizimi, olam xaritasi) ni, avvalo, kommunikativ maqsadlarda aks ettiradi. Olamning til tasviri – bu tilning fikrlash va kommunikativ vazifasini amalga oshirish va shakllantirish yordami bilan predmetlar, harakatlar, belgilar orasida turli-tuman munosabatlar namoyon bo‘lishi sifatida tilda muhrlangan olam haqidagi bilimlar to‘plami.

Til sohiblari – subyektning kommunikativ (muloqot) va bilish faoliyati jarayonida tafakkur va tildagi olam modelining muntazam o‘zgarishi, obyektiv olam (olam tasviri) dolzarb qismlari (fragmentlari)ni o‘zlashtirish bo‘yicha murakkab jarayonlar bo‘lib o‘tadi. Zamonaviy fan nuqtayi nazaridan olam tasviri – bu yaltiroq tasvir emas, balki har doim borliqning ba’zi talqini. Olam yaxlit aks etmaydi, balki uning ko‘proq nisbiy tarkibiy qismlari aks etadi.

Olam tasviri ikki asosiy vazifani bajaradi: interpretativ (tasvirni korishni amalga oshirish) va regulyativ (olamda yo‘nalish (oriyentir). Olam tasvirida so‘z yaxlit olam yoki uning tarkibiy qismi haqida ham borishi mumkin. Til shaklida go‘yoki olam tasvirining parallel til tasviri yaratiladi. Bunday tasvir obyektiv olamning yuqori darajada aynan aks ettirishi kerak. S.G.Shafikov “til olami mavjud obyektiv olamni o‘z navbatida reprezentatsiya qiladigan kontseptual olamning reprezentatsiyasi”[2], deb hisoblaydi. Til mustaqil kreativ (ijodiy) kuch sifatida ishtirok etmaydi, shubhasiz, olamning o‘zining xususiy tasvirini yaratmaydi, faqat mavjud olamning o‘zining dastlabki manbai va bu olamdagи faoliyatiga ega insonning kontseptual olamini belgilaydi. Til shaklida go‘yoki olam tasvirining parallel til tasviri yaratiladi. Bunday tasvir esa obyektiv olamni yuqori darajada aynan aks ettirishi kerak. [2, 57]

Til bir va o‘sha obyektiv olamga tegishlidir. Olamning til tasviri yaxlit va asosan odamlar ongidagi mantiqiy ifoda bilan muvofiq keladi, ammo til modellari va og‘zaki namunalar orqali alohida tillarning o‘ziga xos xususiyatlari sababli olamni qo‘shimcha ko‘rish bo‘lib o‘tadi. Har bir tilning mehnat, ijtimoiy va madaniy tajribasi xususiyatlari hodisalar va jarayonlarning u yoki bu ma’nolar bilan birgalikdagi leksik va grammatik nominatsiyalarning farqida o‘z aksini topadi. Olamning til tasvirini “so‘zlarda muhrlangan olam milliy obrazining ijtimoiy qabul qilingan nusxasi kabi ushbu madaniyat sohiblari, millat vakillari ongida olam milliy

obrazining o‘zgarmas ko‘rinishidagi nisbatda qaytadan tiklashni kafolatlaydigan va takrorananiqlaydigan eng asosiy omil sifatida” aniqlaydi. [3, 80]

Olamning til tasviri “ushbu tilning xususiy sifatlarini aks ettirib va uning ruhiy o‘ziga xosligini aniqlab, ushbu odamlar jamoasining ijtimoiy hayoti va madaniyati xususiyatlari” bilan uzviy bog‘liq. U haqiqat olamidan har bir til ortida turadigan ma’lum madaniyatning o‘ziga xosligi bilan zo‘rg‘a farq qiladi. Olam tasvirini shakllantiradigan tasavvurlar noaniq ko‘rinishda so‘zlar ma’osiga kiradi. Til motivatsiyasi hamisha alohida tillarning o‘ziga xos imkoniyatlarini ochadi. So‘zlar tushunchaning barcha mazmunini emas, balki aynan xalq nuqtai nazarida tasvirlangan muhim belgilardan birini ifodalaydi.

Tilda ma’lum me’yorda xalqning chuqur ruhiyati aks etadi. Turli tillarga xos har tomonlama tushunchalar kategoriyasida namoyon bo‘ladi. Bu kategoriylar bizning nimalarni ko‘rganimizni aks ettiradi. Aynan ushbu hartomonlamalik pirovardida xorijiy tillarni egallash imkoniyatlarini yuzaga keltiradi. Boshqa tomondan esa, har bir alohida til, odatda, tushunchalarda biz olamni ko‘rganimiz kabi aks etganidek aynan ushbu tillarga xos va xos bo‘lmagan o‘ziga xos tushunchalarning tizimiga ega bo‘ladi. Til tafakkurning shakllaridan biri hisoblanganligi uchun turli tillarning sohiblari bir-biridan o‘z til tafakkuri shakllari bilan farq qiladi. Har bir til o‘zicha olamni konsepsiyalashtirib, o‘zining olam til tasvirini yaratadi. Konsepsiyalashtirishning assosi esa konseptlardir. Sh.Safarov, konsept ham tafakkur birligi va uning asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma’no ummumlashmasi yotadi. Konseptning shakllanishi individual obraz tug‘ilishidan boshlanib, lisoniy birlikning paydo bo‘lishi bilan tugaydi, deb yozadi. Demak, olamning til tasviri konseptlarda aks etsa, uni konceptual nuqtayi nazardan qarab chiqish maqsadga muvofiqli.

Adabiyotlar:

1. Колшанский О. В. Объективная картина мира в познании и языке. М: Наука., 2005. стр. 23.
2. Корнилов О. А. Языковые картины мира как производные национальных менталитетов. М:1990, стр. 80.
3. Кубрякова Е. С. Об установках когнитивной науки и актуальных проблемах когнитивной лингвистики. Вопросы когнитивной лингвистики. 2004. №1, стр. 13.
4. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax, 2006, 17-b